

## DUMAN QAL'A VA BOZOR QAL'ADAN TOPILGAN QADIMGI XORAZM TAQINCHOQ VA MUNCHOQLARIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR

**Aziza Saparbayeva Asror qizi**

Urganch davlat universiteti tarix fakulteti tarix ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
[azizasaparbayeva13@gmail.com](mailto:azizasaparbayeva13@gmail.com)

**Annotatsiya:** Qadimgi Xorazmning ko'p sonli mazilgohlar mavjud va ulardan aniqlangan qadimiy zargarlik buyumlari namunalari xilma-xil va o'ziga xos. Ularning ko'p qismi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan aniqlangan, qisman o'rganilgan. Ushbu maqolada shu ma'lumotlarga tayangan holda Duman qal'a va Bozor qal'adan aniqlangan munchoqlarni tavsiflashga va tahlil qilishga harakat qilindi.

**Аннотация:** Древний Хорезм имеет большое количество святынь, и найденные в них образцы древних украшений разнообразны и уникальны. Большинство из них выявлено и частично изучено сотрудниками Хорезмской археологической экспедиции. В данной статье на основе этой информации предпринята попытка описать и проанализировать бусы, найденные в Думан-кале и Базар-кале.

**Abstract:** Ancient Khorezm has a large number of shrines, and the samples of ancient jewelry found in them are diverse and unique. Most of them were identified and partially studied by the employees of the Khorezm archaeological expedition. In this article, based on this information, an attempt was made to describe and analyze the beads found in Duman castle and Bazaar castle.

**Kalit so'zlar:** Duman qal'a, Bozor qal'a, taqinchoq, munchoq, shlak, smala, ko'zmunchoq, radial, reaktiv.

**Ключевые слова:** Думан-кала, Базар-кала, бижутерия, бусина, шлак, смала, очковая, радиальная, реактивная.

**Keywords:** Duman castle, Bazaar castle, jewelry, bead, slag, smala, eyeglass, radial, reactive.

**Kirish.** Xorazm o'lkasida azaldan zargarlik san'ati buyumlarini tayyorlash keng yoyilgan. O'lkamizda olib borilgan arxeologik-etnologik ekspeditsiyalar natijasida aniqlangan qal'alarni arxeologik jihatdan o'rganish jarayonida u yerdan topilgan zargarlik buyumlari, ya'ni munchoq, tumor, uzuk, bilakuzuklarni o'rganishga e'tibor berildi. Bu esa, o'lkadan aniqlangan zargarlik buyumlarini har tomonlama tavsiflanishiga olib keldi. Duman qal'a va Bozor qal'a hududlaridan



aniqlangan munchoqlarning birontasi Markaziy Osiyo hududidan aniqlanmaganligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Duman qal’a – Mil.avv.IV-III - milodiy I-IV asrlarga oid bo‘lib, hozirda Ellikqal’a tumanida joylashgan.

Bozor qal’a - Beruniy shahridan 40 km sharqda, Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan bo‘lib, bu yerda mil.avv. VI-V asrlar – milodiy ilk asrlarda hayot mavjud bo‘lgan. S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya natijasida, 1938-yil aniqlangan.

**Asosiy qism.** Duman qal’adan milodiy I-III asrlarga oid bor-yo‘g‘i to‘rtta munchoq topilgan bo‘lib, ular juda katta qiziqish uyg‘otadi. Ulardan ikkitasi (ikkalasining ham bo‘laklarida) ko‘zmunchoq tipidagi, qadimgi diniy e‘tiqod bilan bog‘liqlikni ko‘rish mumkin. Ulardan bir hajm jihatidan katta bo‘lib, sharsimon, shaffof yashil rangli shishadan, ko‘zlari esa oq pastadan yasilib, qizil, radial tarzda joylashtirilgan chiziqlar bilan bezatilgan. Ikkinchi kichikroq munchoq esa oq ko‘zli qora rangda bo‘lib, radial tarzda tartibga solingan chiziqlari ham qora rangda va bu boshqa hududlardan aniqlangan munchoqlar bilan deyarli hech qanday o‘xshashlikka ega emasligi bilan munchoqlarning mahalliy turi sifatida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Munchoq oq zich toshdan yasalgan, siyoh yoki bo‘yoq bilan surtilgan uchta archa ko‘rinishidagi qora bezakli kichik sharsimon shaklni hosil qiladi. Munchoq butun holatda bizgacha yetib kelgan bo‘lib, uning bezaklarini saqlanishi yaxshi. Nafaqat Qadimgi Xorazm balki, Markaziy Osiyo hududi manzilgohlaridan aniqlangan materiallarda ham u bilan o‘xshashlik topilmadi.


Yashil-kulrang shlakdan tayyorlangan noyob “P” shaklidagi munchoq ham juda qiziq. Ushbu munchoqning shaklida ham, materialida ham o‘xshashlik topilmadi. Shlakdan qilingan bo‘lsa ham, u munchoqlarning mahalliy turiga kiradi va ularning Xorazmda mahalliy ishlab chiqarilishi mavjudligini tasdiqlaydi.[1]

Bozor qal’adan miloddan avvalgi IV asr va millodning boshlariga oid juda ko‘p munchoqlar topilgan bo‘lib, ular asosan, shishadan yasalgan, sharsimon shaklda bo‘lgan. Ma’lumki, miloddan avvalgi I asrda shishani puflovchi quvur ixtiro qilingan va u bilan deyarli bir vaqtning o‘zida puflangan shisha munchoqlar keng tarqaldi.

Bozor qal’ada, boshqa narsalar qatorida, ko‘k rangli Misr smalasidan yasalgan, o‘lchami 13 mm bo‘lgan boshsiz, juda real tarzda ishlangan erkak haykalchasi topildi. Ko‘p o‘xshashliklar asosida, u qadimgi dunyoda juda mashhur Misr xudosi Bes, o‘choq homiysi ekanligini aniqlash mumkin edi, uning tasvirlari Bozor qal’ada topilganlarga o‘xshash bo‘lib, tumor vazifasida xizmat qilgan.[2]



Ta’riflangan marjon va ko’p sonli zarhallangan sharsimon shisha munchoqlardan tashqari, Bozor qal’ada silindr shaklida bir uchi biroz toraygan, oq pastadan qilingan siniq chiziq ko‘rinishidagi bezakli katta (4x1 sm) reaktiv munchoq topilgan. Munchoq baliq sirtiga o‘xshash naqsh hosil qiladi. Ushbu turdagi munchoqlar antik davrda keng tarqalgan.



**III. 1-4-rasm. Dumanqal’adan topilgan munchoqlar:**

*1-2-ko‘zmunchoqsimon bezakli munchoqlar; 3- sharsimon reaktiv munchoq; 4- “P” shaklidagi munchoq.*

**IV. 1-2-rasm. Bozorqal’adan aniqlangan munchoqlar:**

*1- zarhallangan sharsimon shisha munchoq; 2- siniq chiziq ko‘rinishidagi katta reaktiv munchoq.*

**Xulosa.** Qadimgi Xorazm zargarlik buyumlari o‘ziga xosligi, ularning ishlab chiqarish texnikasi va tuzilishi jihatidan boshqa hududlardan ajralib turishini Duman qal’a va Bozor qal’a misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada keltirilgan ma’lumotlar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkin:

- Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish jarayonida aholining o‘zining to‘plagan bilimi, tajribasidan va tabiat bergan moddiy resurslardan unumli foydalangan.
- Duman qal’adan ko‘zmunchoqsimon munchoqlarning aniqlanishi aholi orasida turli fetishistik g‘oyalarning paydo bo‘la boshlaganidan darak beradi.
- Bozor qal’a munchoqlari orasidan aniqlangan o‘ziga xos, murakkab shakldagi tumorlar o‘lkamiz hayotida zargarlik san’ati bilimlarining takomillashib boshlaganidan darak beradi.
- Duman qal’a munchoqlari orasidan aniqlangan “P” shaklidagi munchoqning mavjudligi aholi orasida parmalash texnikasining yana ham takomillashganligini ko‘rishimiz mumkin.





**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Труды Хорезмской экспедиции, т. С-112.
2. См. материалы ГИМ 87/36а.
3. [Karakalpakstan.travel](http://Karakalpakstan.travel)
4. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)

